



## BADIIY ADABIYOTDA BOLA OBRAZI (XUDOYBERDI TO'XTABOYNING "JANNATI ODAMLAR", ANTUAN DE SENT-EKZYUPERINING "KICHKINA SHAHZODA" ASARLARI MISOLIDA)

*Farg'ona davlat universiteti Filologiya fakulteti 3-kurs talabasi*

*Marjona Solijonova Sadirdin qizi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada badiiy adabiyotda bola obrazining shakllanishi, tarixiy-madaniy ildizlari hamda uning universal obraz sifatidagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, Xudoyberdi To'xtaboyning "Jannati odamlar" va Antuan de Sent-Ekzyuperining "Kichkina shahzoda" asarlaridagi bola obrazining psixologiyasi, xarakteri va muallif ko'zida tutgan xulosalar qiyosiy tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** bola obrazi, epos va dostonlar, bola tasviri, badiiy obraz, universal obraz, roman.

Bola obrazi badiiy adabiyotda eng qadimgi va eng muhim obrazlardan biri bo'lib, u asrlar davomida poklik, ezgulik, beg'uborlik va insoniy kamolot ramzi sifatida talqin etib kelinadi. Insoniyat hayotining ibtidosi bo'lgan bolalik davri adabiyotda nafaqar biologik yoki yosh bilan bog'liq tushuncha, balki insonning eng sof ruhiy pallasini ifodalovchi badiiy hodisadir.

Bola obrazining tarixiy - madaniy ildizlari muqaddas mabalarda - Qur'oni Karim, Hadisi Sharif, shuningdek, xalq og'zaki ijodi namunalari, miflar, epos va dostonlar bilan chambarchas bog'liqdir. Islomiy manbalarda bola tabiatan pok, gunohsiz mavjudot sifatida talqin qilinadi. Hadislarda bolaga mehr ko'rsatish, yaxshi tarbiyalash va avaylash oliy insoniy fazilat sifatida e'tirof etiladi. Ana shu qarashlar badiiy tafakkurda ham o'z aksini topgan. Umuman olganda, bola - ilohiy qudratga ega, ezgulik yo'lida xizmat qiluvchi obraz sifatida gavdalangan asarlar ham talaygina.

Kattalar psixologiyasini o'rganish, tahlil qilish va asarda aks ettirishdan ko'ra bola psixologiyasi ancha murakkabdir. Ayniqsa, asarni bola tilidan yozish



Yozuvchidan ancha mas'uliyat va mahorat talab qiladi. "Jannati odamlar" romani xuddi shunday asarlar sirasiga kiradi. Bu asar Xudoyberdi To'xtaboyning shoh asarlaridan biridir. Asar 4-5 yoshli bola tilidan hikoya qilinadi. Menning fikrimcha, asarning ta'sir kuchini oshirgan sabablardan biri ham, aynan asarning bola tilidan yozilganidir. Asarda Erkavoy buva bilan 4-5 yoshli otadan erta yetim qolgan va onasi boshqa turmush qurgan Rahmonberdining sarguzashtlari hikoya qilinadi. Asarda bolaning so'zlari va xatti-harakatlaridan adib uning ruhiy dunyosini chuqur anglaganligi seziladi. Bola aynan 4-yoshda dunyoni anglashga, tushunishga, o'rganishga qiziqishi ortadi. Hamma narsaga qiziqadi, ko'plab savollar berib dunyoni, odamlarni o'rganishga intiladi. Asardagi Rahmonberdi ham xuddi shunday bobosiga savollar beradi va javob olmaguncha tinib tinchimaydi. Bobosi Erkavoy nabirasining har bir bergan savoliga javob beradi, xuddi katta insonlar bilan suhbatlashganday suhbatlashadi. Bu ham bola ruhiyati va uning tarbiyasi uchun muhimdir. Bolani yoshlikdan mustaqil fikrlashga o'rgatish, dunyoqarashinu shakllantirish uchun uning ham gaplariga quloq tutish zarur. Asar qahramoni Rahmonberdi bobosi Erkavoy va buvisi Robiyabibilarning qo'lida ana shunday e'tiborni, mehrni his qilib, haqiqiy o'zbek an'alariga monand tarbiya ko'rib ulg'aygan boladir.

Fransuz adabiyotiga mansub Antuan de Sent-Ekzyuperining "Kichkina shahzoda" asarida ham bola obrazini universal obraz sifatida ko'rishimiz mumkin. Asar qahramoni - Kichkina shahzoda. Uning o'z olami, kichik sayyorasi bor. Unda esa faqatgina uchta vulqon va u uchun beqiyos qiymatga ega, hammadan ham ziyoda ko'rgan atirguli bor. Shahzoda yerga tushganda ko'plab atirgullarga duch keladi, ammo uning uchun o'z guli qadrlil va azizdir. Chunki u yagona va yolg'iz, dunyodagi boshqa birorta gulga o'xshamaydigan gulni asrab-avaylashni o'z zimmasiga olgan. Yozuvchi o'zi ta'kidlab o'tganidek, bu asar faqat bolalar uchun emas, balki bir paytlar yosh bo'lgan kattalar uchun hamdir. Sababi bu asarda bola tomonidan ko'rsatiladigan mehr, sadoqat, vafo kabi tuyg'ular kattalarga o'rnak sifatida ko'rsatilgandek.



Badiiy adabiyotda bola obrazi turli millat vakillarida turlicha talqinda beriladi. Sharqona qadriyatlarga ko'ra, yoshlikdan bolalar ota-onalari, bobo-buvilari qo'lida tarbiya ko'rib, ularning ko'maklari, nasihatlari, bergan o'g'itlari bilan voyaga yetib kamol topishadi. "Jannati odamlar" romanidagi bola obrazini ham xuddi shu udumlarga ko'ra voyaga yetayotgan o'zbek bolasi sifatida ko'rishimiz mumkin. "Kichkina shahzoda" asarida esa, bola biroz erkinroq, atrofga bo'lgan qarashlari o'zgacha, qiziqishlari keng qamrovli ekanligini guvohi bo'lamiz. Ammo, har ikkala asardagi bolaning samimiyligi, tabiiyligi va ularning olamga bo'lgan kuchli qiziqishlari, hatto ba'zi o'rinlarda kattalar tushunishi, his qilishi qiyin bo'lgan vaziyatlarga bo'lgan munosabatlari ularni bir-biriga yaqinlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, bola obrazi badiiy adabiyotda oddiy yosh timsoli emas, balki ma'naviy poklik, insoniy kamolot va ezgulikni igodalovchi universal obrazdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Izzat Sulton - "Adabiyotshunoslik nazariyasi". - Toshkent, 2005.
2. Dilmurod Quronov - "Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari". - Toshkent, 2018.
3. Xudoyberdi To'xtaboy - "Jannati odamlar". - Toshkent, 2016.
4. Antuan de Sent-Ekzyuperi "Kichkina shahzoda". "Adabiyot uchqunlari" nashriyoti, 2018.